ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

ITALYAN TILINI RUSIYZABON GURUHLARDA O'QITISHNING DIDAKTIK VA METODIK ASOSLARI

Abduzohirova Ruxsora Nu'mon qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Italyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi stajyor-o'qituvchi
ruxsorabduzohirova95@gmail.com
+99897 915 17 65

Annotatsiya

Mazkur maqolada rusiyzabon guruhlarda italyan tilini o'qitishning lingvodidaktik va psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor rus tili va italyan tili o'rtasidagi grammatik, fonetik va sintaktik tafovutlarga, shuningdek, o'quvchilarning psixologik holatiga qaratilgan. Masla (2021) va Dalla Libera (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida, italyan tilini samarali o'qitish uchun kommunikativ va madaniy integratsiyaga asoslangan metodik yondashuvlar tavsiya etiladi. Tadqiqotlarda rusiyzabon talabalar orasida til o'zlashtirishda xatolarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar, formalistik o'qitish uslublarining ustunligi, va og'zaki muloqotda sustlik holatlari aniqlangan. Mualliflar xatolarni o'quv resursiga aylantirish, multimodal vositalardan foydalanish, interaktiv muhit yaratish va o'qituvchining madaniy vositachi sifatidagi rolini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydilar. Maqola, shuningdek, italyan tilini o'rganishda individual yondashuv va madaniy tafovutlarni hisobga olishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Annotation

This article explores the linguistic and psychological characteristics of teaching Italian to Russian-speaking groups. It analyzes the impact of grammatical, phonetic, and syntactic differences between the Russian and Italian languages on the language acquisition process. In particular, it addresses common issues faced by students, such as difficulties in accepting mistakes, low engagement in oral communication, and reliance on traditional, formalistic teaching methods. Based on studies by Masla (2021) and Dalla Libera (2021), the article recommends communicative and culturally integrated teaching approaches. The authors emphasize the importance of using multimodal teaching tools, creating interactive learning environments, and strengthening the role of the teacher as a cultural mediator. The article also highlights the relevance of adopting individualized approaches and considering cultural differences in the process of learning Italian. The research confirms the necessity of comprehensive and modern methods in effective Italian language teaching.

Аннотация

В данной статье рассматриваются лингводидактические и психологические особенности преподавания итальянского языка русскоязычным группам. Анализируются грамматические, фонетические и синтаксические различия между русским и итальянским языками и их влияние на процесс усвоения иностранного языка. Особое внимание уделяется трудностям, с которыми сталкиваются учащиеся, таким как непринятие ошибок, пассивность в устной речи и приверженность формалистическим методам обучения. На основе исследований Маслы (2021) и Далла Либера (2021) в статье предлагаются коммуникативные и культурно-интегрированные методические подходы. Авторы подчеркивают важность использования мультимодальных средств обучения, создания интерактивной учебной среды, а также усиления роли преподавателя как культурного посредника. Также отмечается актуальность

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

индивидуального подхода и учета культурных различий в процессе изучения итальянского языка. Результаты исследования подтверждают необходимость комплексных и современных методов обучения.

Zamonaviy globallashuv sharoitida chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Yevropa tillari orasida italyan tili o‘zining boy madaniy merosi, adabiyoti, san’ati va iqtisodiy aloqalari bilan ajralib turadi. Rusiyzabon guruhlar orasida italyan tiliga qiziqish so‘nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Bu holat, bir tomondan, madaniy va turistik aloqalar kengayishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik, tahsil olish va mehnat migratsiyasi imkoniyatlari bilan ham izohlanadi.

Ilmiy va amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, rusiyzabon auditoriyaga italyan tilini o‘qitish o‘ziga xos metodik yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu guruh vakillarining til o‘zlashtirish jarayonida ko‘plab umumiy xususiyatlar mavjud: ularning ona tili rus tili bo‘lib, u italyan tiliga nisbatan tipologik jihatdan ancha farqlidir. Bu farqlar, xususan, **morfosintaktik** va **fonetik** darajada ko‘plab o‘ziga xos xatolarga sabab bo‘ladi.

Masalan, A. Masla (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda rusiyzabon italyan tili o‘rganuvchilari tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatolar tahlil qilinadi va ular asosida didaktik vositalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bu xatolar, agar to‘g‘ri yondashuv bilan ishlansa, o‘rgatuvchi uchun o‘ziga xos resursga aylanishi mumkin: ular asosida maxsus mashqlar, testlar tuzish, hamda talabalarning tilga nisbatan reflektiv munosabatini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Boshqa tomondan, Cristina Dalla Libera (2021) tomonidan yozilgan doktorlik dissertatsiyasi rusiyzabon talabalarga italyan tilini o‘rgatishda tarixiy, metodik va ijtimoiy madaniy omillarni chuqur tahlil qiladi. U rusiyzabon auditoriya uchun italyan tili darslari qanday tuzilayotgani, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot xususiyatlari, shuningdek, didaktik materiallar va o‘quv-uslubiy yondashuvlarning samaradorligi masalalarini ko‘taradi

Rusiyzabon auditoriyada italyan tilini o‘rganish jarayoni, til strukturasi va madaniy tafovutlar sababli bir qator xususiyatlarga ega. Til o‘rganuvchilarning o‘z ona tillari (asosan rus tili) bilan italyan tili o‘rtasida mavjud grammatik, sintaktik va leksik tafovutlar, shuningdek, psixologik omillar o‘rganish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Masla (2021) ta’kidlaganidek, rus tilidan italyan tiliga o‘tilayotganda yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri — **lingvistik transfer**dir. Rusiyzabon talabalar italyan tilidagi **artikl**, **yordamchi fe’llar**, **so‘z tartibi**, va **predlog**lardan foydalanishda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Bu holat rus tilida ba’zi til birliklarining umuman mavjud emasligi bilan izohlanadi. Masalan:

1. *“il computer del professore”* konstruktsiyasi rus tilida *“kompyuter professora”* shaklida artiklsiz ifodalanadi.
2. Ko‘plab o‘quvchilar o'tgan zamonda yordamchi fe’l ("essere" yoki "avere") tanlashda xatoga yo‘l qo‘yadilar: *"è partecipato"* o‘rniga *"ha partecipato"* bo‘lishi kerak.

Shuningdek, fe’l va fe’l bog‘lovchilari (masalan, congiuntivo) ishlatilishida ham katta qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu grammatik birliklarning rus tilida to‘laqonli ekvivalenti bo‘lmagani uchun italyan tilida ularni o‘zlashtirish sezilarli vaqt va mashqni talab qiladi.

Cristina Dalla Libera (2021) tadqiqotida aytilishicha, rusiyzabon talabalarning o‘z ona tilidagi o‘quv tizimi hali ham ko‘p jihatdan **formalistik yondashuv**ga asoslangan bo‘lib, bunda grammatik to‘g‘rilik ustuvor hisoblanadi. Bu, bir tomondan, o‘quvchilarni yuqori til sezuvchanligiga o‘rgatsa-

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

da, boshqa tomondan, ularda tilni **erkin va og‘zaki ravishda qo‘llashga bo‘lgan ishonchsizlik**ni keltirib chiqaradi.

Masla (2021) o‘z maqolasida rusiyzabon o‘rganuvchilarda xatolarni qabul qilish psixologik jihatdan og‘riqli kechishini ta’kidlaydi. Xususan, ularning xatolari ochiq tanqid qilinmasligi, balki maxfiy tarzda tahlil qilinishi samaraliroq ekanini qayd etadi. Bu, sobiq sovet tizimidagi ta’lim an’analariga borib taqaladi, unda xato — bu "jazoga loyiq harakat" sifatida talqin qilingan. Shuning uchun ham talaba o‘zini o‘qituvchi tomonidan ochiq tanqid qilinganida psixologik jihatdan noqulay his qiladi

Rusiyzabon auditoriyaga italyan tilini o‘rgatish jarayonida o‘qitish metodikasi muhim rol o‘ynaydi. Metodik yondashuvlar faqat grammatik bilimlarni yetkazishga emas, balki tilning madaniy va kommunikativ jihatlarini o‘zlashtirishga ham xizmat qilishi zarur. So‘nggi yillarda o‘qituvchilar klassik tarjima-metodik yondashuvdan ko‘ra kommunikativ va madaniy integratsiyaga asoslangan uslublarga o‘tishga intilmoqda.

Cristina Dalla Libera (2021) o‘z dissertatsiyasida Rossiya ta’lim tizimidagi italyan tili darslari hanuzgacha **formalist yondashuv** asosida olib borilishini ta’kidlaydi. Bunday darslarda grammatik to‘g‘rilik, tarjima mashqlari, va yozma testlar ustuvor hisoblanadi. Bu yondashuv, albatta, strukturaviy bilimlarni chuqur egallash imkonini beradi, biroq talabalarni erkin og‘zaki muloqotga tayyorlashda samarasiz hisoblanadi.

Yozma ko‘nikmalar va grammatik mashqlar kuchli o‘zlashtirilsa-da, og‘zaki nutqda ko‘plab qiyinchiliklar, jumladan to‘g‘ri fe’l zamonlarini tanlay olmaslik, gapni strukturaviy jihatdan to‘g‘ri qurmaslik hollari kuzatiladi. Bu holat, ayniqsa, real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilishda seziladi.

A. Masla (2021) taqdim etgan tadqiqot italyan tilini rusiyzabon o‘rganuvchilarga samarali o‘rgatish uchun **kommunikativ metodik yondashuvni** tavsiya etadi. Muallif ta’kidlaganidek, aynan o‘rganuvchilarning yozma nutqida uchraydigan **tipik xatolar** asosida o‘quv materiallari tuzish orqali ularni mustahkamlash mumkin. Jumladan:

1. Ko‘p variantli test mashqlarida noto‘g‘ri javoblarni darajalashtirish,
2. O‘z xatolari asosida reflektiv tahlil qilish,
3. Madaniy vositalardan – qo‘shiqlar, dialoglar, vizual materiallar – foydalanish orqali ongli yondashuvni rag‘batlantirish.

Masalan, muallif **VALICO** korpusidagi rusiyzabon talabalarning yozma ishlarida eng ko‘p uchraydigan xatolarni tahlil qilgan va ularni asos qilib olgan mashg‘ulotlarni ishlab chiqqan. Bu mashqlar o‘quvchiga xatoni nafaqat aniqlash, balki uni anglab tuzatish imkonini beradi — bu esa tilni chuqurroq tushunishga olib keladi.

Dalla Libera (2021) asarida rusiyzabon guruhlarda italyan tilini o‘qituvchi o‘ziga xos **modellar** rolini bajarishini ta’kidlaydi. Rus auditoriyasida darslar odatda kichik guruhlarda bo‘lib o‘tadi (15 kishidan oshmaydi), bu esa o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida yaqin, samimiy munosabat o‘rnatish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Shuningdek, ularning o‘zlarini erkin his qilishi, **"affektiv filtr"** darajasini pasaytirib, o‘rganishga tayyor holatni shakllantiradi.

Metodik jihatdan, o‘qituvchining o‘quvchilarga xatolarni tushuntirish uslubi ham muhim: u xatoni bevosita emas, balki bilvosita ko‘rsatib, talabani **avtokorrektsiyaga** undashi kerak. Bunday yondashuv o‘quvchining ishonchini oshiradi va uni o‘z bilimiga nisbatan mas’uliyatli qiladi.

Italyan tilini rusiyzabon guruhlarda samarali o‘qitish nafaqat nazariy yondashuvlar, balki real amaliy kuzatishlar va talabalarning hamda o‘qituvchilarning fikr-mulohazalari asosida baholanishi kerak. Cristina Dalla Libera (2021) o‘z tadqiqotida Moskvaning yetakchi oliy ta’lim muassasalarida

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

o‘tkazilgan intervyular va so‘rovnomalar asosida chuqur tahlillar olib borgan bo‘lib, bu tajriba bizga rusiyzabon muhitdagi o‘qitishning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

So‘rovnomalardan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, rusiyzabon talabalar italyan tilini o‘rganishda bir nechta asosiy qiyinchiliklarga duch kelishmoqda:

1. **Fonetika va talaffuz:** italyan tilidagi uzun va qisqa unli tovushlar, intonatsiya, hamda urg‘u joylashuvi rus tilidan farqli bo‘lib, ko‘p mashq qilishni talab qiladi.
2. **Grammatik struktura:** yordamchi fe’llar, artikl va zamonlar tizimi rus tilidagi mos kelmaydigan birliklar tufayli o‘zlashtirishda murakkablik tug‘diradi.
3. **So‘z boyligi:** rus tilidagi ko‘p ma’nolilik (polisemiya) va italyancha sinonimlarning uslubiy farqlari (rassom/pittore, artista) noaniqlikka olib keladi.

Ushbu muammolarni talabalarning o‘zlari ham tan olishadi va o‘z fikrlarida "avval nazariyani o‘rganamiz, keyin qo‘rqib so‘zlaymiz", degan iboralar ko‘p uchraydi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Tadqiqotda ishtirok etgan o‘qituvchilarning aksariyati (20 nafar respondent) italyan tilini o‘qitishda quyidagi holatlarga e’tibor qaratganlar:

a) Talabalar grammatika jihatdan kuchli bo‘lsa-da, og‘zaki muloqotda sust.

b) Formalistik yondashuvning ustunligi talabalarning erkin fikr bildirishiga to‘sqinlik qiladi.

c) Darsda multimodal resurslar (audio, video, interaktiv dasturlar) yetarlicha qo‘llanilmaydi.

Shuningdek, o‘qituvchilar italyan tilining **interkultural** jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi: stereotiplarni yengish, real hayotiy vaziyatlarda tilni qo‘llash, madaniyatlararo farqlarni tushunish bu auditoriya uchun muhim bo‘lib bormoqda.

Dalla Libera (2021) tomonidan olib borilgan empirik tadqiqot shuni ko‘rsatdiki:

a) Rusiyzabon guruhlarda italyan tilini o‘rgatishda metodik yondashuvni diversifikatsiya qilish zarur.

b) Kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi uslublarni tatbiq etish (rol o‘yinlari, suhbatlar, erkin nutq mashqlari) talabalar faolligini oshiradi.

c) O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki madaniy vositachi rolini ham bajarishi lozim.

Bu kuzatishlar rusiyzabon guruhlar uchun italyan tilini o‘rganish jarayonini nafaqat samaraliroq, balki motivatsion jihatdan ham boyitish imkonini beradi.

Rusiyzabon guruhlarda italyan tilini o‘qitish masalasi zamonaviy lingvodidaktika va til siyosati kontekstida dolzarb mavzulardan biridir. Tahlil qilingan manbalar — Masla (2021) va Dalla Libera (2021) asarlari asosida shuni aytish mumkinki, rusiyzabon auditoriyada italyan tilini o‘zlashtirish jarayoni bir qator lingvistik, psixologik va metodik omillar bilan murakkablashgan. Ayniqsa, grammatik va morfosintaktik tafovutlar, o‘qitishdagi formalistik yondashuv va o‘quvchilarning xatolarga bo‘lgan salbiy munosabati o‘rganish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Biroq ayni manbalarda taklif etilgan yondashuvlar — **kommunikativ metodika**, **xatolar ustida refleksiya**, **avtokorrektsiyaga asoslangan mashg‘ulotlar**, shuningdek **madaniyatlararo yondashuv** italyan tilini samarali o‘qitishda muhim rol o‘ynashi mumkin. O‘qituvchilar til o‘rgatish jarayonida o‘zlarini nafaqat tilshunos, balki madaniy ko‘prik bo‘lishi kerakligini anglashlari muhim. Talabalar esa tilni strukturaviy emas, kommunikativ hodisa sifatida qabul qilganlarida, real hayotiy vaziyatlarda uni samarali qo‘llay olishadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

Shu bois, rusiyzabon guruhlarda italyan tilini o‘qitishda metodik yangilanish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ochiq, ishonchli muhit yaratish, va interaktiv resurslardan foydalanish bo‘yicha takliflar keltirib o‘tiladi:

a) Xatolarni o‘rganish vositasiga aylantirish.

b) Monologik va dialogik nutqni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni ko‘paytirish.

c) Madaniy tafovutlar va stereotiplar ustida ishlash orqali interkultural kompetensiyani shakllantirish.

d) Raqamli va multimodal vositalardan faol foydalanish.

Ushbu maqola natijalari rusiyzabon auditoriyada italyan tilini o‘qitishda samarali yondashuvlarni ishlab chiqish, dars jarayonini insoniylashtirish va har bir talabaning til o‘zlashtirishdagi shaxsiy yo‘lini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Masla, A. (2021). *Imparare dagli errori: apprendenti russofoni di italiano LS/L2*. EL.LE – Educazione Linguistica. Lingue e Letterature Straniere, 10(3), 361–392. DOI: 10.30687/ELLE/2280-6792/2021/03/002

2. Dalla Libera, C. (2021). *L’insegnamento dell’italiano in Russia e ai russi*. Tesi di dottorato di ricerca in Lingue, Culture e Società Moderne e Scienze del Linguaggio, Università Ca’ Foscari di Venezia.

3. Krashen, S. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon Press.

4. Balboni, P. E. (2010). *Le sfide di Babele. Insegnare le lingue nelle società complesse*. UTET Università.

5. Ciliberti, A. (2012). *Educazione linguistica e cittadinanza*. FrancoAngeli.